

SHIRVON ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (XII asrda)

Jumayeva Kamola

TMC Instituti "Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar" kafedrası

filol.fan.b.fals.d (PhD), v.b.dotsenti

kamolajumaeva7@gmail.com

Annotatsiya: *Mazku maqolada XII asr fors mumtoz adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Shirvon adabiy muhiti, uning o'ziga xos xususiyatlari va bu muhitda faoliyat olib borgan shoirlar, ularning ijodiy merosi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Shirvon, Abul A'lo Ganjaviy, Falakiy Shirvoniy, Nizomiy Ganjaviy, Mehsatiy Ganjaviy, Xoqoniy Shirvoniy.*

Shirvon o'lkasi fors mumtoz adabiyotining yuksalib, ravnaq topishiga o'z hissasini qo'shgan markazlardan biri bo'lgan. Bu adabiy muhitda yashab ijod etgan shoirlarning fors adabiyotida o'ziga xos o'rni bor.

Bu muhit X asrdan keyin Shirvon o'lkasida bevosita Shirvonshohlar saroyi bilan bog'liq holda shakllandi. Rus sharqshunosi Yevgeniy Bertels o'zining "Tanlangan asarlar. Nizomiy va Fuzuliy" monografiyasida "X asrda boshlangan Abbosiylar xalifaligining zaiflashuvi Eron va O'rta Osiyoda mahalliy sulolalarning kuchayishiga va bu bilan bog'liq holda fors tilidagi adabiyotning gullab-yashnashiga olib kelgan"⁵ deydi. Fors tiliga bo'lgan e'tibor kuchayganidan so'ng, shoirlar she'r yozishdagi mahoratlarini shu tilda ko'rsata boshlagan.

Har bir davrning o'z adabiyoti bo'lganidek, XII asrda Shirvon o'lkasida adabiy muhitni shakllantirgan va uning rivojiga o'z hissasini qo'shgan ijodkorlar jamoasi bo'lgan. Hodi Hasan "Shirvonda Abul A'lo Ganjaviy, Xoqoniy Shirvoniy va Falakiy Shirvoniylar yaratgan adabiy muhit bor edi. Davlatshoh Samarqandiy Nizomiy Ganjaviy, Sayyidi Zulfiqor va Shahfurlarni, Taqi Avhadiy ularga qo'shimcha tarzda Mujiriddin Beylaqoniy va Izzud-Din-Shirvoniylarni ham Shirvon saroyi bilan aloqasi bor deya eslatib o'tadi"⁶ deydi.

Shirvon o'lkasida XII asrdagi adabiy muhit qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Bu xususiyatlarni quyidagilarda ko'rish mumkin:

birinchi, adabiy muhit vakillari qasida, g'azal, ruboiy, qit'a, fard, tarkibband, tarji'band kabi lirik janrlarda mahorat ko'rsatgan va ular orasida qasida, g'azal, ruboiyning asosiy o'rin tutgani e'tiborga arzigulik jihat hisoblanadi;

⁵ Бертельс Е. Избранные труды. Низами и Фүзули. – Москва: Наука, 1962. – С. 27.

⁶ Hodi H. Falaki Shirvani: His times, life and works. – London: The Royal Asiatic Society, 1929. – P. 25.

ikkinchi, shoirlar turli lirik janrlarda ijod etganidan tashqari, bir necha epik janrlarda ham qalam tebratgani adabiy muhitning o'ziga xos xususiyatlaridan. Ularga Nizomiy Ganjaviyning dostonlari, Xoqoniy Shirvoniyni munshaotlari misol bo'ladi;

uchinchi, bu davrda ijod qilgan shoirlarning aksariyatidan she'riy devon meros qolganligi adabiy muhitning o'ziga xosligini ifodalovchi asosiy jihatlaridandir;

to'rtinchi, saroy ijodkorlari orasida Mehsetiy Ganjaviy ismli shoira ijodiy faoliyat olib borganligi adabiy muhitning e'tiborga molik xususiyatlaridan biri bo'lgan;

beshinchi, adabiy muhit a'zolarining aksariyati saroy shoirlari edi, faqat Nizomiy Ganjaviy rasmiy tarzda saroy xizmatida bo'lmasa-da, u bu muhitga sezilarli iz qoldirgan ijodkor bo'lgan.

Bu xususiyatlar shoirlar ijodiy faoliyatining gullab-yashnashiga, lirik janrlarning mavzusi, g'oyasi kengayishiga va shoirlarning keng ko'lamda ijod qilishiga imkon yaratgan. Shuning uchun ham adabiy muhitda faoliyat olib borgan shoirlarning aksariyatidan she'riy devon meros qolgan. Quyida XII asr Shirvon adabiy muhitida faoliyat olib borgan shoirlar ijodiga qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Abul A'lo Ganjaviy (1096-1159) XII asr Shirvon adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakillaridan bo'lgan. U Shirvanshoh Manuchehr (1120-1149) xizmatida bo'lgan va o'sha davr yetakchi shoiri sifatida e'tirof etilgan. Abul A'la Ganjaviy "Malik ul-shuaro – shoirlar shohi" unvoniga sazovor bo'lgan. Manbalarda keltirilishicha "shoirning she'riy devoni hozirgi kungacha topilmagan, ijodidan turli namunalar, parchalar yetib kelgan"⁷. Shunday bo'lishiga qaramay, bu manbalar "shoir nomi fors adabiyotida Shirvanshoh Manuchehr shoiri sifatida boqiy qolganiga"⁸ guvohlik beradi. Abul A'la Ganjaviy Shirvon adabiy muhitining yetakchi vakili bo'libgina qolmay, o'z davrining peshqadam qasidanavislari Xoqoniy Shirvoni, Falakiy Shirvoni kabi mashhur shoirlarning ustozlari bo'lgan⁹.

Falakiy Shirvoni Abul A'lo Ganjaviyning iste'dodli shogirdlaridan biri. Shoir Shirvonda tavallud topib, shahar madrasasida tahsil olgan va o'z davrining mashhur bilimlarini, arab tili va uning grammatikasini, ilohiyot sirlarini puxta o'rgangan. Ko'p manbalar qasida va g'azalda o'ziga xos uslubga ega Xoqoniy Shirvoniyni do'sti bo'lganligiga guvohlik beradi¹⁰. Eronlik olim Muhtamir Abdullohiy "shoir devonidagi aksariyat she'rlar Shirvanshoh Manuchehr (1120-1149) madhiga

⁷ ابوالعلاء گنجوی ملک الشعراء شیروانشاه // اژانس خبری تحلیلی نصر. - ۱۳۹۱. - ص. ۱. <https://nasnews.ir>

(Manbaga 12.10.2022 da murojaat qilindi).

⁸ O'sha joyda.

⁹ Азербайджанская литература XI-XII веков. <https://www.azmosobl.ru> (Manbaga 15.06.2023 da murojaat qilindi).

¹⁰ احمد رضا. نقد و تحليل تحريفات ديوان فلکی شروانی بر اساس نسخه‌های تازه یافته // فنون ادبي. - اصفهان، ۱۳۸۹. - ص. ۹۷-۱۰۸.

bag‘ishlanganligini”¹¹ qayd etgan. U qasidalarini chuqur ilmiy bilimlarga asoslanib, yuqori badiiy mahorat bilan yozgan. Shoirning she’rlari o‘zining mazmuni bilan emas, balki she’riy tuzilishining nafisligi bilan ham e’tiborni tortadi. Hodi Hasan 1929 – yil Londonda Falakiy Shirvoniy hayoti va ijodiga bag‘ishlab kichik risola nashr etgan. Mazkur risolada Shirvon podshohligi, hijriy oltinchi asrdagi Shirvonshohlar, jumladan, Shirvonshoh Fariddun I, Shirvonshoh Manuchehr II, Axsatan I, Manuchehr II va boshqa Shirvonshohlar¹² haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu risolada Falakiy Shirvoniyning hayoti, ijodi va devoni¹³ tadqiq etilgan.

Shirvon adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri XII asrda saroy doirasida iste’dodli shoiraning ijodiy faoliyat olib borganligida. Bu shoira ayolning ismi Mehsetiy Ganjaviy (1089-1183) bo‘lib, ba’zi manbalarda Menij xonum deb qayd etilgan. U haqidagi ma’lumotlar juda kam. Tug‘ilgan joyi ham aniqlanmagan, ammo taniqli ingliz sharqshunosi E.Braun o‘zining "Eron adabiyot tarixi" nomli ko‘p jildli kitobida uni Ganja shahrida tug‘ilganligini¹⁴ qayd etgan. Shoira kambag‘al oilada tug‘ilgan bo‘lsa-da, o‘zining iqtidori, qobiliyati bilan Shirvon adabiy muhitida va shoirlar orasida yuksak ehtiromga sazovor bo‘lgan. Davlatshoh Samarqandiy “Mehsetiy Ganjaviyni Sultoni Sanjar (1113-1157) saroyiga yaqin bo‘lganini, zakovati bilan ajralib turganini e’tirof etgan”¹⁵. Manbalarda keltirilishicha shoiraning badiiy merosi asosan ruboiylardan iborat bo‘lgan va ular soddaligi, uslubning tabiiyligi bilan ajralib turgan¹⁶. Mehsetiy Ganjaviy siymosi orqali Shirvon adabiy muhitida sakkiz yuz yildan oshiq vaqt mobaynida iste’dodli shoira ayolning borligini e’tirof etish kerak.

XII asr Shirvon adabiy muhitida Mujiriddin Beylaqoniy, Givami Mutarriziy, Izaziddin Beylaqoniylarning shaxsiyati, ijodiy faoliyati alohida ahamiyat kasb etgan, ammo bu shoirlar haqida juda kam ma’lumot saqlanib qolgan. Shunday bo‘lishiga qaramay ular o‘zining benazir ijodiy faoliyati bilan Shirvon adabiy muhitining rivojlanishiga sezilarli ta’sir o‘tkazganini unutmaslik lozim.

Xoqoniy Shirvoniy va Nizomiy Ganjaviy Shirvon adabiy muhitining eng nuqtadon va donishmand ijodkorlaridan bo‘lgan. Nizomiy Ganjaviy saroy shoiri bo‘lmasa-da, adabiy muhitga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazgan. Xususan, shoirning Xoqoniy Shirvoniy bilan yaqin do‘stona munosabatda bo‘lgani, xatlar yozishgani tarixda ma’lum. Yevgeniy Bertels o‘zining “Tanlangan asarlar. Nizomiy va Fuzuliy”

¹¹ مجتبیٰ عبدالحی. در آمیختگی اشعار فلکی شروانی با شعر دیگران // پژوهشهای نثر و نظم فارسی. – تهران، ۱۴۰۰. – ص. ۱۶۹.

¹² Hodi H. Falaki Shirvani: His times, life and works. – London: The Royal Asiatic Society. 1929. – P. 4-16.

¹³ O’sha manba. – B. 96.

¹⁴ Гулизаде М. Литература Азербайджана. Литература XII в. Хагани. <https://ravshir.livejournal.com> (Manbaga 27.07.2023 da murojaat qilindi).

¹⁵ Гулизаде М. Литература Азербайджана. Литература XII в. Хагани. <https://ravshir.livejournal.com> (Manbaga 27.07.2023 da murojaat qilindi).

¹⁶ O’sha joyda.

monografiyasida ularga alohida to'xtaladi¹⁷. Nizomiy Ganjaviy va Xoqoniy Shirvoniyni ijodiy merosi va ularning Shirvon adabiy muhitidagi o'rnini ko'rsatish alohida tadqiqotni talab qilgani uchun bu keyingi tadqiqotlarda batafsil yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бертельс Е. Избранные труды. Низами и Фузали. – Москва: Наука, 1962.
2. Hodi N. Falaki Shirvani: His times, life and works. – London: The Royal Asiatic Society, 1929.
3. Гулизаде М. Литература Азербайджана. Литература XII в. Хагани. <https://ravshir.livejournal.com>
4. Азербайджанская литература XI-XII веков. <https://www.azmosobl.ru>
5. احمد رضا. نقد و تحليل تحريفات ديوان فلکی شروانی بر اساس نسخه‌های تازه يافته // فنون ادبي. – اصفهان، ۱۳۸۹. – ص. ۹۷-۱۰۸.
6. مجتبیٰ عبدالحی. در آمیختگی اشعار فلکی شروانی با شعر دیگران // پژوهشهای نثر و نظم فارسی. – تهران، ۱۴۰۰. – ص. ۱۶۹.
7. ابوالعلاء گنجوی ملک الشعرای شیروانشاه // اژانس خبری تحلیلی نصر. – ۱۳۹۱. – ص. ۱. <https://nasrnews.ir>
8. احمد رضا. نقد و تحليل تحريفات ديوان فلکی شروانی بر اساس نسخه‌های تازه يافته // فنون ادبي. – اصفهان، ۱۳۸۹. – ص. ۹۷-۱۰۸.

¹⁷ Бертельс Е. Избранные труды. Низами и Фузали. – Москва: Наука, 1962. – С. 82.